

Metonimiyaning kognitiv modeli va uning konseptual xarakteri

Ergasheva Nozima Xasan qizi
GulDU 2-bosqich tayanch doktoranti

Anotatsiya. Ushbu maqolada metonimiyaning kognitiv modeli va uning konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Metonimiya dastlab stilistik vosita sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, zamonaviy kognitiv lingvistika uni inson tafakkurining muhim mexanizmi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, tadqiqotda metonimiya va metaforaning kognitiv farqlari, metonimiyaning konseptual domen ichida yuzaga kelishi hamda uning ma’no hosil qilish va idrokni iqtisod qilishdagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Metonimiya, kognitiv lingvistika, konseptual model, metafora, semantik ko‘chish, mental xaritalanish.

Metonimiya til tizimining eng qadimiy va universal ma’no ko‘chish vositalaridan biri bo‘lib, tarixan stilistik trop sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, zamonaviy kognitiv lingvistika uni inson tafakkurining konseptual mexanizmi sifatida talqin qiladi. Yevropa va Amerika lingvistik maktablarida, xususan, Lakoff, Johnson, Panther, Radden kabi olimlar tomonidan metonimiya inson ongining konseptual mexanizmi sifatida talqin qilinib, uning kognitiv modellari va konseptual xarakteri chuqur o‘rganilgan. Klassik stilistikada metonimiya “bir narsa nomining u bilan aloqador boshqa narsa nomi orqali berilishi” sifatida qaralgan bo‘lsa (Aristotel, Gumboldt, Vinogradov), kognitiv lingvistika uni konseptual fikrlashning strukturalangan mexanizmi sifatida talqin qiladi. Demak, metonimiya metaforadan farqli o‘laroq nafaqat “nutq bezagi”, balki cognitio (lotincha -bilish tushunish) bilish jarayoniga xos bo‘lgan modeldir.

Yuqorida takidlanganidek, metonimiyaning ilk talqinlari qadimgi ritorika maktablariga borib taqaladi. Aristotelning “Poetika” asarida metonimiya aloqador obyektни boshqa obyekt orqali nomlash sifatida izohlanadi. Keyingi davrlarda Vinogradov, Bally, Akhmanova, Ushakov kabi stilistlar metonimiyani semantik o‘zgarishlar modeli sifatida ko‘rgan.



XX asr oxirida kognitiv lingvistika shakllanib, metonimiya semantik hodisadan kognitiv jarayon darajasiga ko‘tarildi. Lakoff va Johnsonning 1980-yillarda yaratgan “Metaphors We Live By” asari metonimiyani inson idrokining markaziy mexanizmi sifatida qayta ta’rifladi. Lakoff va Johnsonning fikricha, metonimiya — bu bir domen ichidagi ikki elementning o‘zaro konseptual aloqadorligi asosida hosil bo‘ladigan mental xaritalanishdir. Kognitiv yondashuvda metonimiya fikrlash jarayonidagi tejamkorlik, diqqatni markazlashtirish va konseptual bog‘lanishlarni optimallashtirish xususiyatlariga ega mexanizm sifatida qaraladi.

Metafora ham tildagi muhim hamda ko‘p uchraydigan stilistik vosita sifatida tilshunoslikka tanish. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida metonimyaning klassik adabiyotda metafora tarkibida organilganligi ham ta’kidlandi, farqlari haqida to‘xtalib o‘tildi, quyida ular o‘rtasidagi kognitiv tafovutlarni ham ko‘rib o‘tsak:

Metonimiya va metaforaning kognitiv tafovuti:

Metafora: A-domen → B-domen (ikki turli konseptual soha orasidagi ko‘chish)

Metonimiya: Bir domen ichidagi A-element → B-element (aloqadorlik, yaqinlik, assotsiatsiya)

Metonimiyaning o‘ziga xos xususiyati- u boshqa domenni jalb qilmaydi, balki mavjud konseptual soha ichida teskari yoki to‘g‘ri yo‘nalishdagi xaritalanish yaratadi. Shu sababli u kognitiv jihatdan lokal xaritalanish deb ham ataladi. Shuningdek, kognitiv model sifatida metonimiyaning ahamiyatiga ham bir muncha to‘htalib o‘tsak. Metonimiya kognitiv jarayon sifatida bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Lakoff va Johnson nazariyasiga ko‘ra, metonimiya - bu bir konseptual domen ichida bir tushuncha orqali ikkinchi tushunchani anglash mexanizmidir. Bu yondashuvda metonimiya til hodisasidan ko‘ra ko‘proq tafakkur hodisasi sifatida qaraladi. Masalan, “Oq uy bayonot berdi” jumlasida “Oq uy” binoning o‘zi emas, balki undagi siyosiy institutni anglatadi. Bu borada Radden va Kövecses metonimiyani ideal kognitiv model (ICM) doirasida ishlaydigan tushuncha sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, metonimiya inson ongida mavjud bo‘lgan bilimlar tuzilmasiga tayanadi va ma’no hosil qilish jarayonida eng muhim markaziy belgini faollashtiradi. Langacker metonimiyani profil va fon (profile–base) munosabati orqali tushuntiradi. Unga ko‘ra, metonimik ko‘chishda bitta konseptual tuzilmaning bir qismi ajratib ko‘rsatiladi va butun strukturaning vakili sifatida ishlatiladi. Bu esa metonimiyaning kognitiv iqtisod



(cognitive economy) tamoyiliga asoslanishini ko'rsatadi. Panther va Thornburg metonimiyani inferensial (xulosa chiqarishga asoslangan) kognitiv mexanizm sifatida talqin qiladi. Ularning nazariyasiga ko'ra, metonimiya nafaqat nomlash, balki pragmatik ma'no hosil qilish vositasi hamdir. Masalan, "U butun zalni kuldirdi" jumlasida "zal" — tomoshabinlar o'rnida ishlatilgan. Shuningdek, Barcelona metonimiyani konseptual tuzilmalar o'rtasidagi ichki bog'lanish sifatida izohlaydi va uni metaforadan farqli ravishda bir domen ichida ishlaydigan kognitiv operatsiya deb hisoblaydi.

Demak, kognitiv tilshunoslikda metonimiya faqat til hodisasi emas, balki tafakkur, konseptuallashtirish va bilish mexanizmi, insonning borliqni tejamli, samarali va tez anglash modeli sifatida qaraladi hamda metanimyaning funksiyalarni tilshunoslar tomonidan keltirilgan fikrlarni umumlashtirilganda quyidagi aniq kategoriyalar asosida xulosalanadi:

Idrokni iqtisod qiladi → ko'p ma'noni bitta belgi orqali beradi.

Tasvirni kuchaytiradi → diqqatni asosiy belgiga yo'naltiradi.

Kategoriyalashni osonlashtiradi → obyektlarni ma'nodosh guruhlarga ajratadi.

Mental xaritalanish yaratadi → konseptlar o'rtasida semantik aloqa o'rnatadi. Nutqni soddalashtiradi → qismlarni butun o'rnida yoki aksincha qo'llaydi. Shu bois metonimiya fikrlashning tejamkor, mantiqiy, assotsiativ modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. Poetics. Translated by S. H. Butcher. Oxford: Oxford University Press, 1902.
2. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Radden, G., Kövecses, Z. "Towards a Theory of Metonymy." In: Metonymy in Language and Thought. Amsterdam: John Benjamins, 1999.
4. Radden, G., Kövecses, Z. "Towards a Theory of Metonymy." In: Metonymy in Language and Thought. Amsterdam: John Benjamins, 1999.
5. Langacker, R. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. Stanford: Stanford University Press, 1987.



6. Panther, K.-U., Thornburg, L. “The Role of Conceptual Metonymy in Meaning Construction.” In: Metonymy and Pragmatic Inferencing. Amsterdam: John Benjamins, 2003.

7. Barcelona, A. “On the Cognitive Theory of Metonymy.” In: Metaphor and Metonymy at the Crossroads. Berlin: Mouton de Gruyter, 2000.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING